



## TALABALARING IJODIY QOBILYATLARNI RIVOJLANTIRISHDA XOMAKI TASVIRLAR ISHLASHNING USTUVORLIGI

*Boltaboyev Azizbek Xasanboy o'g'li*

*Namangan davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

*azizbekboltaboyev1994@gmail.com*

+998943082603

**Annotatsiya:** Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda xomaki tasvirlar ishlash muhim ahamiyatga ega. Xomaki tasvirlar – bu g'oyalarni tezkor ifodalash, tajriba o'tkazish va vizual tafakkurni rivojlantirish jarayoni bo'lib, talabalarga o'z fikrlarini erkin ifodalash imkoniyatini beradi.

**Kalit so'zlar:** Xomaki tasvir, stereotipik, kompozitsiya, dizayn, qobiliyat.

## ПРИОРИТЕТ ПРОРАБОТКИ КОНКРЕТНЫХ ИЗОБРАЖЕНИЙ В РАЗВИТИИ ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ.

**Аннотация:** Рисование эскизов имеет важное значение в развитии творческих способностей учащихся. Скетчинг – это процесс быстрого выражения идей, экспериментирования и развития наглядного мышления, который дает учащимся возможность свободно выражать свои идеи.

**Ключевые слова:** Контура изображения, стереотипизация, композиция, замысел, умение.

## THE PRIORITY OF WORKING OUTLINE IMAGES IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVE SKILLS.

**Abstract:** Sketching is important in the development of students' creative abilities. Sketching is a process of rapid expression of ideas, experimentation and the development of visual thinking, which gives students the opportunity to freely express their ideas.

**Key words:** Outline image, stereotyping, composition, design, ability.

### KIRISH

Jamiyat taraqqiyotining zamонавиј шароитида та'lim tizimining barcha bo'g'инларини, jumladan, олий та'limni isloh qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu o'згаришлarning асосиј мақсади, ijodiy faoliyatga qodir bo'lgan tashabbuskor shaxsni shakllantirishdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish ta'limni insonparvarlik g'ояси билан uzviy bog'liq bo'lib, олий та'limning maqsadli tamoyillaridan бирі sifatida



bo'lajak o'qituvchining ijodiy qobiliyatini rivojlantirish muammosini dolzarblashtirishni o'z ichiga oladi.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida, uning kelajagini belgilovchi yoshlarni har tomonlama yetuk, komil, yuksak madaniyatli va ma'naviyatli bo'lib yetishishini ta'minlash yo'lida amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlarining asosiy bo'g'ini sifatida tasviriy san'at ta'limi pedagog xodimlarning yuqori ilmiy metodik bilimlarga, yuksak maxoratga ega bo'lishi hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Tasviriy san'atni o'rganishda qalamtasvir fani fundament vazifasini bajaradi.

Qalamtasvir taviriya san'atning poydevori bo'lib, tasviriy san'at o'qituvchisining professional o'sishi uchun zarur bo'lgan asosiy bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi. Shu bois tasviriy san'atni chuqur o'rganmoqchi bo'lgan har bir shaxs avvalo qalamtasvirni mukammal o'zlashtirishi lozim.

Qoralama va xomaki chizgilar bevosita bizni o'rab turgan atrof muhitni, borliqni tasvirlashda juda qadim tarixga ega. Insoniyat uni o'rab turgan muhit dunyosini tasvirlashga qadimgi davrlardan intilib kelgan.

Tirik modellarni, qushlar, hayvonlar, odamlarni, ayniqsa, harakatdagi holatini tasvirlashda, naturaga qarab tugallangan chizmatasvir chizish mumkin emas. Hatto naturachini chiroqli harakatdagi murakkab holatini, odatdagi chizmatasvir usulida tasvirlash, o'sha go'zal harakatni, o'sha haqqoniylilikni bera olishi qiyin. Ammo bu holat qoramalada o'z yechimini topadi. Nafis harakatni ifodalovchi murakkab holatda, inson 2-3 daqiqa tura olishi mumkin, o'z-o'zidan, keyin holat beixtiyor o'zgaradi, zo'riqadi, soxta holat bo'lib, notabiiy ko'rinish hosil qiladi. Bir so'z bilan aytganda, o'zining dastlabki go'zalligini, haqqoniyligini yo'qotadi. Natijada murakkab holatda turgan inson harakati yuzaki bo'lib qoladi.

Hayotni, borliqni estetik his qilishda, go'zallikni tushunib, sezishda qoramalaning ahamiyati katta. Chiziqlarning nozikligi, shtrixlarning go'zalligi, tasvir shaklining simmetriyasi va nisbati, nafis harakatlar, inson qomatining egiluvchanligini o'rganib, bilimlarni egallahsha qoramala yordam beradi.

Talaba qoramalani nimadan boshlashi, o'z oldiga qanday maqsad va talablar qo'yishi, qoramalani qay darajada davom ettirishi va tugatishga o'z diqqatini qaratishi talab qilinadi. Shuni ta'kidlash joizki, mashhur usta rassomlarning chizgan



qoralamalarini, talabalar tomonidan bajarilgan qoralamalar bilan taqqoslaganda shunday xulosaga kelish mumkin. ya'ni ruhiy jarayonlar qisqa fursatdagi tezchizgilar, katta ustalarda ham, yosh rassomlarda ham bir xil qonuniyatga asoslangan. Asosiy farqlari shundaki, katta ustalarda bu jarayonlar yuqori darajada rivojlangan, sifatli qoralamalar bilan belgilanadi.

Qoralama va xomaki chizgilar turlicha usullarda va yo'alishlarda bajariladi. Bu usul, yo'naliishlar avvalo, rassom talabaning maqsad vazifalari, tasvirlanayotgan shakl, ruhiy jarayonning xarakteri, chizuvchining tasviriy san'atni, qalamtasvirni qay darajada o'zlashtirganligi, badiiy iqtidori bilan aniqlanadi.

Masalan: chovgun, ko'za, meva-sabzavot va hokazolarning tez chizmasini chizishda oddiy qalam yordamida, bir chiziqda yoki chiziqlar va tusda shakllarni ko'rsatish mumkin. Qurilish jarayonida yuk ko'targich kranlar yoki jimjimador temir to'sinlarni tasvirlashda tush-pero yordam beradi, quyosh botishining go'zalligi yo bo'lmasa anhor, sokin ko'lar tasvirini akvarel, sepiya, yumshoq qalamda bajarishning imkonini ko'proq. Yurib ketayotgan odamning holatini ilg'ab olish va hayvonot bog'idagi jonivorlar harakatini tasvirlashni, qalam, tush-pero, ko'mirda bajarish tavsiya etiladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ko'pincha qoralamalar tasvirdagi obrazni umumlashtirib, uning yagona va tipik xarakter qirralari, psixologiyasi, kompozitsion tugallanganini ifodalovchi, biror syujetni ko'rsatuvchi harakat, tabiat holatini, rassomning o'z hissiyot va sezgisini to'laqonli bera olishi, bajarilgan tasvir tugallanganligidan dalolat berib, alohida mustaqil asar hisoblanadi. Bunday tugallangan asar sifatida qabul qilinadigan qoralamalarni dunyoning mashhur rassomlari qatorida, taniqli o'zbek rassomlarining ham ijodida uchratamiz. Bunga Rembrandt, Dyurer, I.Ye. Repin, V.A.Serov, Shishkin, J.Umarbekov, A.Mirzaev, B.Jalolov, A.Hotamov, A.Mamajonovlarning qoralama, xomaki chizgilarini misol keltirish mumkin. O'zbekiston xalq rassomi Alisher Mirzaevning grafit qalamida bajarilgan "Eski shahar", "Surxondaryo", "Oqtosh", "Gurzuf" turkumlari, zamondoshlarimiz "shoir Aziz Abdurazzoq", "To'ra Sulaymon" portretlarini mukammal, yaxlit tugallangan asarlar qatoriga kiritish mumkin.



Talabalarda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda xomaki tasvirlarni (eskizlar) ishslash muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon ijodiy tafakkurni shakllantirish, tasviriy san'atga oid ko'nikmalarni rivojlantirish va yangi g'oyalarni amalga oshirish imkonini beradi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Xomaki tasvirlar orqali talabalar o'z fikrlarini tez va erkin tarzda qog'ozga tushira oladilar. Bu esa ularga yangi g'oyalarni o'ylab topish, ularni eskiz holatida aks ettirish va keyinchalik mukammallashtirish imkonini beradi.

Xomaki tasvirlar orqali talabalar qo'l harakatlarini rivojlantirib, qo'l bilan chizish texnikasini mustahkamlashlari mumkin. Bu esa ularga keyinchalik murakkab kompozitsiyalar yaratishda yordam beradi.

Tezkor eskiz chizish jarayoni talabalarni stereotipik fikrlashdan xalos etib, ularning ijodiy tafakkurini faollashtiradi. Ular an'anaviy yondashuvlardan chiqib, yangicha va original uslublarni sinab ko'rishga harakat qiladilar.

Xomaki tasvirlar ustida ishslash talabalar uchun vaqtini to'g'ri taqsimlash imkonini beradi. Ular o'zlarining fikrlarini tezroq aks ettirishga harakat qilib, ortiqcha tafsilotlarga berilmasdan muhim jihatlarga e'tibor qaratadilar.

Ko'pgina san'at va dizayn yo'nalishlarida dastlabki xomaki tasvirlar keyinchalik kengaytirilgan loyihibar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Talabalar eskizlar yordamida kompozitsion yechimlarni topadilar va o'z g'oyalarni bosqichma-bosqich takomillashtiradilar.

Tez-tez eskiz chizish bilan shug'ullangan talabalar o'z iste'dodlariga ishonch hosil qilib, ijodiy jarayonga dadilroq kirishadilar. Ular xatolardan qo'rqlay, aksincha, ularni ijodiy jarayonning tabiiy qismi sifatida qabul qiladilar.

San'at va dizayn sohasida fikrni vizual shaklda yetkazish juda muhim. Xomaki tasvirlar talabalar uchun o'z fikrlarini grafik shaklda ifodalash va boshqalar bilan muloqot qilish imkonini beradi.

### XULOSA

Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda xomaki tasvirlarni ishslash muhim pedagogik vosita hisoblanadi. U ijodiy tafakkurni shakllantiradi, tasviriy ifodalash qobiliyatini oshiradi va tasviriy san'at yo'nalishida muvaffaqiyatga erishish



uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantiradi. Shuning uchun o'quv jarayonida xomaki tasvirlarni yaratishga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boltaboyev A. X. O'quv jaryonida qalamchizgi va qoralamalarni bajarishda talabalarni kasbiy-pedagogik kompetensiyasini rivojlatnirish texnologiyasi. // Ilmiy axborotnama. – Namangan, 2023. – № 7. – B. 553–558.
2. Nabihev, B. (2022). Natyurmort kompozitsiyasini tuzish va tasvirlashda bosqichlar asosida ishslashning ahamiyati. Academic research in educational sciences, 3(12), 334-338.
3. Mohirjon, O. (2023). Qaysi biri yaxshiroq: naturadanmi yoki fotosuratdanmi?. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 2(16), 101-103.
4. Komoldinov, S. (2023, December). Qalamtasvir mashg'ulotlarida kompozitsiyaning ahamiyati. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic: "Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions" (Vol. 1, No. 01).
5. Rakhimov, K. (2023). THE PLACE OF GRAPHICS IN THE FINE ARTS. Solution of social problems in management and economy, 2(2), 5-8.
6. Sattarov, F. (2024). Manzaraning ishslash jarayoni va uning ilmiy-nazariy tahlili. Scientific-Theoretical Journal of International Education Research, 2(1), 38-41.
7. Badirdinov D.Sh. (2023). ISSUES OF DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FUTURE VISUAL ARTS TEACHERS THROUGH GRAPHICS. Ekonomika i sotsium, №1(104), 8-11.
8. Toxirovich S. N. VISUAL ARTS TEACHING METHODOLOGY AND PROBLEMS AND SOLUTIONS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – T. 11. – №. 5. – C. 569-571.
9. Xasanboy o'g'li, Boltaboyev Azizbek, and Ahmedov Davlatbek Saloxiddin o'g'li. "Psychological Features of Adolescence." Eurasian Research Bulletin 4 (2022): 25-27.
10. Boltaboyev A. Tasviriy san'at darslarida talabalarning o'quv jarayonida qoralamalar bajarish texnikalari //Жамият ва инновациялар–Общество и инновации– Society and innovations.–2023.
11. Boltaboyev A. O'QUV JARYONIDA QALAMCHIZGI VA QORALAMALARINI BAJARISHDA TALABALARINI KASBIY-PEDAGOGIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLATNIRISH TEXNALOGIYASI //Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. – 2023. – №. 7. – C. 553-559.
12. Boltaboyev A. TALABALARINI KASBIY-PEDAGOGIK QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING MEHANIZMI VA USULLARI //Академические исследования в современной науке. – 2024. – T. 3. – №. 8. – C. 140-146.
13. Boltaboyev A. BO'LAJAK O'QITUVCHINING KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH SHART-SHAROITLARI //INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic: "Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions". – 2023. – T. 1. – №. 01.